

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati 545

B.A.Pulatov

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari 548

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari 552

N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari 557

D.I.Asqarova

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari 561

M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari 569

M.Q.Jabborova

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari 572

FALSAFA**A.A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari 579

I.M.Arzimatova

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi 583

D.E.Normatova

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati 588

I.A.Asatulloev

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili 593

T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov

Korruksiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari 597

S.S.Evatov

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi 602

I.Y.Toirov

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari 606

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili 610

A.A.Sayitxonov

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi 614

F.A.Yuldashev

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests 618

S.P.Tojiboyev

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili 625

B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari 631

M.A.Abduxamidov

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili 635

SIYOSAT**J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari 638

A.A.Ganiyev

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati 643

TARIX**B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir 648



**"MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI" KONSEPSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA
DINII QADRIYATLAR OMILNING INNOVATION XUSUSIYATLARI**

**ИННОВАЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФАКТОРА РЕЛИГИОЗНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В
РЕАЛИЗАЦИИ КОНЦЕПЦИИ «ОТ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОССТАНОВЛЕНИЯ К
НАЦИОНАЛЬНОМУ ПРОГРЕССУ»**

**INNOVATIVE CHARACTERISTICS OF THE FACTOR OF RELIGIOUS VALUES IN
IMPLEMENTING THE CONCEPT "FROM NATIONAL RECOVERY TO NATIONAL PROGRESS"**

Qambarov Abdumutal Axadjonovich

Farg'ona davlat universiteti professori,
falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Məqolada ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasining ahamiyati, uni amalga oshirishning tashkili, ijtimoiy, ma'naviy asoslari, mazkur jarayonda din va diniy qadriyatlardan foydalananining zamonalavly innovatsion xususiyatlari tadqiq qilingan.

Аннотация

В статье рассматривается значение концепции «От национального возрождения к национальному росту», организационные, социальные и духовные основы ее реализации, современные инновационные особенности использования религии и религиозных ценностей в этом процессе.

Abstract

The article examines the meaning of the concept "From National Revival to National Growth", the organizational, social and spiritual foundations of its implementation, modern innovative features of the use of religion and religious values in this process.

Kelit so'zlar: taraqqiyot, milliy tiklanish, milliy yuksalish, konsepsiya, din, diniy qadiyat, islom dini, yoshlar, diniy bag'rikenglik.

Ключевые слова: развитие, национальное возрождение, национальный подъем, концепция, религия, религиозная традиция, исламская религия, молодежь, религиозная толерантность.

Key words: development, national revival, national upsurge, concept, religion, religious tradition, Islamic religion, youth, religious tolerance.

KIRISH

Ijtimoiy taraqqiyotda inson ma'naviy hayotining tarkibiy qismi hisoblangan din va diniy qadriyatlар muhim rol o'ynaydi. Bizning fikrimizcha, jamiyatda diniy masalalar yechimi yaqin o'tmishda inson kamolotida o'zini oqlamagan ateistik uslub emas, balki obyektiv, ilmiy, falsafiy, metodologik yondashuvni taqazo etadi. Afsuski, hozirgi kunda ham ayrim mutaassib shaxslar har qanday yangi ishni bid'at-xurofot sanab, o'zgarishlarga keskinlik bilan munosabatda bo'lishga odatlanib qolganlar. Ular o'z iddaolarini "Kim bizning ishimizda unda bo'limgan yangilikni paydo qilsa, u rad etiladi", "Darhaqiqat, eng yaxshi so'z Allohnning Kitobi, eng yaxshi yo'l Muhammad (alayhis-salom)ning yo'lidir. Ishlarning eng yomoni esa ularning yangi paydo bo'lganlaridir va har bir yangilik zalolatdir" kabi hadislar bilan izohlaydilar. Lekin dunyoviy ishlarda nass va muayyon diniy qoidalarga xilof kelmasa, ularda yomon bid'at yo'q. YA'ni, haromni halol, halolni haromga aylantirish kabi bid'atlarga yo'l qo'yilmasa bunga e'tiroz yo'qdir[1:10]. Shunday ekan, milliy yuksalish jarayonida islom dini qadriyatlarni o'rgatish va ma'rifatli insonlarni tarbiyalash orqali bid'at-xurofotlar tarafdarlarini, yangilikka kanservativ munosabatda bo'luchchilarni qarshi tarish mumkin.

MATERIALLAR VA METODLAR

Jamiyat hayotida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik jihatlar bilan bir qatorda diniy omil ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, qadim davrlardan buyon diniy omil ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Turli xalq va millatlar madaniyati taraqqiyotini diniy omilning ta'siridan xoli ravishda tasavvur etib bo'lmaydi. "Barchamizga yaxshi

ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof vaadolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir”[2.36]. Shunday ekan, har bir davlat o'zining milliy taraqqiyot jarayonida milliy va diniy hususiyatidan kelib chiqqan holda yo'nalish tanlashi, maqsadini belgilashi muhim hisoblanadi. O'zbekiston ham o'zining milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon borish jarayonida islam dini qadriyatlaridan, vijdon erkinligiga oid qonunlardan oqilona foydalanish lozimligi kelib chiqadi. Zero, islam manbalariga ko'ra, din va e'tiqod uchun erkinlik yaratilgan yurtda dushmanlik, bog'iylik qilinmaydi[3.48].

Jamiyatimizning milliy tiklanishi yo'lidagi diniy-ma'rifiy islohotlardan yana biri Imom Buxoriy xalqaro markazining tashkil etilganligi edi. U 2008 yilning 23 maydag'i Vazirlar Mahkamasining 875-son Qarorga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, asosan, ikki yunalishda faoliyat olib boradi: Bininchidan, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Mahmud Zamashshariy, Burhonuddin Marg'inoni yabi yurtimizdan yetishib chiqqan ko'plab buyuk allomalarning ilmiy-ma'naviy, diniy va madaniy merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish hamda ulardan keng xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarni xabardor qilish, bu yo'nalishda xorijiy mamlakatlardagi ilmiy markazlar, olim va tadqiqotchilar bilan yaqin hamkorlik o'matish; ikkinchidan, Respublikamizning turli shahar va viloyatlaridagi jome masjidlarida imom xatiblik qilayotgan diniy xodimlar bilan dunyoviy va diniy bilimlar sohasidagi o'quv-mashg'ulotlari tashkil etish. Bundan tashqari, mazkur ilmiy-nazariy seminar xulosalaridan kelib chiqib, yaqin kelajakda Imom Buxoriy xalqaro markazida Imom Buxoriy merosi va hadis ilmini o'rganish borasida xalqaro hamkorlik ishlarini yo'Iga qo'yish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” konsepsiyasini ta'minlashda hamda amalga oshirish uchun islohotlar davrida muayyan pozitiv mazmundagi sharoitlar yaratildi. Har bir jamiyatning milliy tiklanishi uchun milliy qadriyatlar, urf-odatlari va an'analarini qayta tiklamog'i, milliy o'zlikni anglamog'i juda muhim hisoblanadi. Milliy tiklanish aslida mustamlaka yoki boshqa bir og'ir musibatlar, uzoq vaqt urish xolatidan keyingi o'zgarishlar va qayta tiklanishlarga asoslanadi. Ko'plab millatlar mustamlaka sirtmog'idan xalos bo'lgandan so'ng yoki bir ezuvchi tuzumdan boshqa bir tuzumga o'tganda milliy siyosatida xalqning xoxish-istagiga qarab milliy tiklanish siyosatini olib boradi.

Milliy tiklanish milliy va diniy qadriyatlar va an'analarga asoslangan siyosatni olib borish asnosida millatning o'z tarixiga ezgu munosabatini va tarixini tkashga qaratilgan bo'ladi. O'zbekiston ham mustaqillikdan keyinoq milliy tiklanish siyosatiga – milliy qadriyatlar, milliy madaniyat, islam dini qadriyatlar va tarixni qayta tkash orqali milliy o'zlikni anglash siyosatiga alohida e'tibor qaratildi. Bu boradagi ishlarda diniy qadriyatimiz bo'lgan – islam dini qadriyatlarini tkash va takomillashtirish, ijtimoiy hayotning mazmun-mohiyatiga aylantirishga harakat qilinmoqda. Masalan, mustaqillikdan keyin islam dini qadriyatlarini to'liq amalga oshirish, uni hurmat qilish, diniy muassasalar faoliyatini erkinlashtirish va takomillashtirish orqali milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon borish siyosatini jadallashtirish ko'zda tutilgan edi. Zero, islam dini muassasalari o'zining chin mohiyati, faoliyati bilan shaxs ma'naviyatini shakllantirish, insonning ijtimoiy hayotda oqilona yo'l tanlashi, faoliyati, mazmunini anglashida muhim ahamiyat kasb etgan. “Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islam dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli huruj va hamlalardan, tuxmat va bo'xtonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islam madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda”[2.37]. Demak, “Islam dinini va uning Payg'ambarini Alloh taoloning o'zi yuborganini, Qur'onni Karimni ham o'zi nozil qilganini asta-sekin hozirgi zamon ilmi ham tasdiqlab kelmoqda. Eng muhimi, hozirgi zamon ilmi harchand urinmasin, Islam aqiydasida kelgan sobit haqiqatlarning birortasini inkor qilib, uning o'miga boshqa bir haqiqatni taqdim qila olgan yo'q”[4.28]. Mazkur maqolani yozishda dialektik, tarixiylik va mantiqiylik, tizimliylik, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil usullardan oqilona foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Islomiq qadriyatlar – ilohiy kalom, ya'ni Qur'on, shariat hukmlari va Muhammad payg'ambarining sunnatlari jamiyatning milliy tiklanishiga va milliy yuksalishining muhim omili hisoblanadi. Chunki jamiyatimizda shakllangan ana'analar, urf-odatlari va qadriyatlar islam dini tamoyillariga borib taqaladi. Misol uchun, “Islam dini o'z ta'limoti orqali bu dunyoda tinch, farovon hayot kechirishga, oxiratda najot topuvchilardan bo'lishga chorlaydi. Oila va farzand jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Shuning uchun islam shariati ularning har jihatdan yetuk va barkamol tarbiya topishlari, yoshlikdan boshlab ilmga, kasb-hunarga ega bo'lishlariiga targ'ib qilib keladi”[5.106]. Aslida barcha jamiyatlarda din milliy yuksalishning tarkibiy qismi va o'ziga xos shakli

FALSAFA

bo'lgan. Barcha dinlarga xos diniy qadriyat bu ularda shariatning mavjud ekanligidadir. "Insoniyatni yaratgan Xoliq-Alloh taolo birin-ketin shariatlar yuborib, uni asta-sekin tarbiya qilib keldi. Har zamon va makonda har bir avlodga o'ziga xos shariat berdi. Birinchi payg'ambar Odam Atoga berilgan shariat o'sha davrdagi sodda hayotga mos va o'sha vaqt voqeligini hisobga olgan sodda sharita edi. Keyingi davrlarda ham Allah taolo xuddi shu qoida asosida har zamonning, makonning va jamiyatning o'ziga xos holatlarini e'tiborga olib, shariatlar yuborib turdi. Tabiiyki, keyin kelgan shariat o'zidan oldingisidan ko'ra mukammalroq bo'lar edi. Avvalgi payg'ambarlar o'z qavmlarigagina yuborilar, ularning payg'ambarliklari ma'lum muddatga, ma'lum makon va ma'lum jamiyat yoki qavmga xos edi. Shu tariqa ko'plab payg'ambarlar, shariatlar yuborildi. Nihoyat,... Qur'oni Karim nozil qilindi va u orqali jami insoniyat uchun, har zamon va har makonga salohiyati bor Islom shariatini joriy etdi"[4.6-7]. Ushbu Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan keltirilgan islomiy qadriyatlarning shakllanish jarayonini oqilona tushunish va islomiy qadriyat bo'lgan – shariat normalarida milliy yuksalishimizda samarali foydalana olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladи.

Ma'lumki, islom dini faqat aqidalar yig'indisidan iborat bo'lib qolmay, balki ushbu dingga e'tiqod qiluvchi xalqlarning ijtimoiy, huquqiy, g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy hayot tarzi haqidagi qonun-qoidalar, ko'rsatmalar, pand-nasihatlar majmuasidir. Shunday ekan, Islom dini, uning qadriyatları, Qur'on, hadis, ijmo va qiyos asosida ishlab chiqilgan shariat ahkomlari asrlar davomida musulmon xalqlari, xususan o'zbek xalqi ijtimoiy-ma'naviy hayotida o'ta muhim o'rinn egallab kelgani, shubhasizdir. Biz buni xalqimizning qon-qoniga singib ketgan xalqaro diniy bag'rikenglik, xalqaro totuvlik va hamjihatlik, o'zga millat va din vakillariga nisbatan hurmat-ehtirom, diniy murosasizlik kabi fazilatlarning namoyon bo'lishida ham kuzatishimiz mumkin[6.4].

Bunday islomiy fazilatlardan va diniy qadriyatlardan milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari odimlayotgan mamlakatimiz oqilona foydalanishi lozim. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon borayotgan jamiyatimizda islom dini qadriyatlarining xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida tutgan o'mi muhim ahamiyatga ega. Jumladan, "Sharq falsafasining muhim bir qismi bo'lgan islom madaniyatining o'zbek xalqi ma'naviyati tarixida tutgan muhim o'rni shundaki, u odamlarni axloqiy poklikka, ma'naviy barkamollikka undagan. Umuminsoniy va ma'naviy-axloqiy mezonlarga tayangan holda kishilarni hamjihatlikka, totuvlikka, adolatga, mehr-muruvvatga, saxovatga, sabr-bardoshlikka chaqirgan"[7.35].

130 dan ortiq millat va elatlар istiqomat qiluvchi va turli diniy konfetsiyaga mansub e'tiqod qiluvchilarga ega diniy tashkilotlar o'tasida birlikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini ta'minlashda, amalga oshirishda islom dinidagi insoniyatning bir ota va bir onadan yaratilganligi haqidagi oyat turli millat, xalq va elatlarning bir-birlari bilan hamjihatlikda yashashlariga, do'st-birodar bo'lishlariga, hamkorlik qilishlariga muhim sabab ekanligi haqida xulosa chiqarishga asos bo'lishi mumkin.

Mamlaktimizni milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon borishga doir islohotlarda islom dinidagi murosasozlik siyosati ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Turli millat va elatlarni yagona maqsad va g'oya asosida birlashtirish, ular o'tasida do'stona munosabatni shakllantirishda diniy qadriyat bo'lgan murosa qilish g'oyasining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Islom dini hamma vaqt boshqa dingga mansub xalqlarga nisbatan tajovuzkor murosasiz munosabatda bo'lgan deb uqtiruvchi ayrim islom muxoliflarining da'volariga qarshi g'oyaviy kurashda muhim mafkuraviy ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday da'volar o'tmishda ham hozir ham faqat ayrim mafkuraviy va siyosiy g'arazlar nuqtai-nazaridan o'rta ga tashlangani, shubhasiz. Bu da'volar ahir-oqibat fojiali natijalarga olib kelishi mumkin.

Milliy yuksalish siyosatida islom dinidagi zo'rlik ishlatmaslik, faqatgina ma'rifat bilan siyosat yuritish to'g'risidagi g'oyalarda oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Islomda zo'rlab dingga kiritish mumkin emasligi, zero kishining o'z ixtiyori bilan keltirgan iymongina haqiqiy, maqbul iymon ekanligi haqida fikr yuritilayapti. Shunday ekan, dingga da'vat qilish urush, qatl, majburlash, jismoniy jazolash yo'li bilan emas, balki eng avvalo dono fikr-mulohazalar, chiroli pand-nasihatlar orqali amalga oshirilishi joiz.

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish siyosatida islom dinidagi tinchliksevarlik, adolatparvarlik, urushni qoralash, axloqlilik, bidadlik kabi diniy qadriyatlarning ijtimoiy ahamiyatidan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda mamlakatimizning yangi taraqqiyoti bosqichida dini ekstrimizm va aqidaparastlik bilan bog'liq qarama-qarshiliklarni islomiy ma'rifat bilan oydinlashtirish kerak. Shu munosabat bilan islomiy qadriyatlarning tashqi siyosatga oid nuqtai nazariga kelsak,

unda musulmonlarga, agar kerak bo'lsa o'zga dindagilar bilan islom shariatiga muvofiq shartnomalar tuzishga ham ruxsat berilgan. Qur'onda musulmonlarga o'z dushmanlari bilan tuzgan ahdnomani qarama-qarshi tomon buzmagunicha yoki buzishga majbur qilingunicha buzmaslikni, agar ahdnama buziladigan bo'lsa, bu haqda oshkora ma'lum qilishlarini buyuradi. Xuddi shular tufayli o'rta asrlardayoq musulmon va g'ayridin mamlakatlar o'ttasida tinchlik-omonlik o'matish, savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish borasida katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan imkoniyatlar paydo bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan musulmon va g'ayridin xalqlari o'ttasida katta g'oyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ishonch, hurmat-ehtirom, bag'rikengilik rishtalarini mustahkamlash imkoniyati tug'ilgan.

XULOSA

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon borish jarayonida qadriyatlar to'qnashushi, eski qarashlar bilan yangicha qarashlar qarama-qarshiligini paydo bo'lishi tabiy xolat hisoblanadi. Biz ham milliy yuksalish tomon borayotgan ekanmiz, eskicha qadriyatlarni baholash va ularni yangisi bilan o'zgartirish zarurati paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda jamiyatning ma'rifatlilik darajasi, undagi insonlarning diniy va dunyoviy qadriyatlarga obyektiv baho berishlariga imkon beradi. Shunday ekan, milliy yuksalish qotib qolgan milliy va diniy qadriyatlarni o'zgartirishni talab etadi.

Ushbu ezgu ishlardan ko'zlangan pirovard maqsad xalqimiz uchun qadimdan an'anaviy bo'lib kelayotgan diniy-ma'haviy merosga sadoqatni mustahkamlash, shu orqali yurtdoshlarimiz, xususan yoshlarda milliy g'urur, Vatanga muhabbat, bunyodkorlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga amaliy hissa qo'shish hamda ma'rifiy islomning asl qadriyatlarini singdirishdan iboratdir.

Xulosa qilganda, dunyoviylik va diniylik o'tasidagi nisbat masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Boshqacha aytganda, inson hayoti mazmunini tashkil qiluvchi ushbu ikki tarkibiy qism o'ttasida murosaga erishish har qanday jamiyatning mavjud holati va istiqbolini belgilovchi bosh mezon bo'lib kelgan. Demak, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda islom dini qadriyatlaridan oqilona foydalanish dolzarb hisoblanadi. Aslida milliy yuksalishda ilmiy qadriyatlar va ilm-fan muhim ahamiyatga ega bo'lsada, diniy qadriyatlardan oqilona foydalanish ilm-fan tarqqiyotini ta'minlab beradi. Chunki jamiyatni ilmiy yuksalishga va ilmiy qadriyatlarni o'zlashtirishga chorlovchi va ishontiruvchi yagona samarali usul islom dinida ma'rifatga da'vat masalalari va diniy qadriyatlarni o'rgatish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев А. Ислом маърифати ва ҳозирги замон. –Тошкент: Тошкент ислом университети. 2017. –Б. 10.
2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. –Б. 36, 37.
3. Абдуллаев А. Ислом маърифати ва ҳозирги замон. –Тошкент: Тошкент ислом университети. 2017. –Б. 48.
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Олам ва одам, дин ва илм. –Тошкент: Hilol nashr. 2019. –Б. 6-7, 28.
5. Турсунов А. Инсон – мукаррам Зот. –Тошкент: Movarounnahr. 2017. –Б. 106.
6. Сафарова Н. Марказий Осиё халқлари ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихида диний бағрикенглик, халқaro ҳамжиҳатлик ғоялари ҳамда уларнинг диний фундаментализм ва терроризмга қарши курашдаги ғоявий аҳамияти. –Тошкент: Фан. 2005. –Б. 4.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент. Узбекистон. 1999. –Б. 35.